QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

IJTIMOIY FANLAR

SOCIAL STUDIES

FARG‘ONA VODIYSI KIYIM-KECHAKLARINING TASNIFI VA ETNIK XUSUSIYATLARI

https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i02.089

U.G Bakhromov.
Namangan davlat texnika universiteti o’qituvchisi
baxromovu528gmail.com

Annotatsiya. Farg‘ona vodiysi kiyim-kechaklarining tasnifi va ularning etnik xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda vodiy aholisi an’anaviy kiyimlarining tarixiy shakllanish jarayoni, funksional vazifalari, badiiy-bezak unsurlari hamda ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Erkaklar va ayollar kiyimlarining shakli, materiali, rang uyg‘unligi, kashtachilik va naqsh bezaklari orqali hududiy va etnik farqlar ochib beriladi. Shuningdek, kiyim-kechaklarda milliy urf-odatlar, diniy qarashlar va turmush tarzining aks etishi ko‘rsatib o‘tiladi. Annotatsiya Farg‘ona vodiysi kiyinish madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini aniqlash, ularni tasniflash hamda zamonaviy san’atshunoslik va etnografiya tadqiqotlarida foydalanish uchun muhim ilmiy xulosa va umumlashtirishlarni taqdim etadi.

Kalit so’zlar: Eskiz, ko’ylak, xalat, do’ppi, munchoq, bezak, chok, bosh kiyim, qalpoq, cho’ntak.

Annotation.The classification of clothing in the Fergana Valley and its ethnic characteristics is examined from a scholarly perspective. The study analyzes the historical formation of traditional attire of the valley’s population, its functional purposes, decorative and artistic elements, and its relationship with socio-cultural factors. Regional and ethnic distinctions are revealed through the forms, materials, color harmony, embroidery, and ornamental patterns of men’s and women’s garments. In addition, the reflection of national customs, religious views, and lifestyle in clothing is highlighted. The annotation identifies the distinctive features of the Fergana Valley’s dress culture, classifies them, and presents important scholarly conclusions and generalizations for use in contemporary art history and ethnographic research.

Keywords: Sketch, dress, robe, skullcap, bead, ornament, stitch, headwear, cap, pocket.

Аннотация.В данной аннотации с научной точки зрения освещается классификация одежды Ферганской долины и её этнические особенности. В исследовании анализируется процесс исторического формирования традиционной одежды населения долины, её функциональное назначение, художественно-

декоративные элементы, а также взаимосвязь с социально-культурными факторами. Региональные и этнические различия раскрываются через формы, материалы, цветовую гармонию, вышивку и орнаментальные мотивы мужской и женской одежды. Кроме того, показано отражение в одежде национальных обычаев, религиозных взглядов и образа жизни. Аннотация определяет своеобразие культуры костюма Ферганской долины, предлагает её классификацию и представляет важные научные выводы и обобщения для использования в современных искусствоведческих и этнографических исследованиях.

Ключевые слова: Эскиз, платье, халат, тюбетейка, бусина, орнамент, стежок, головной убор, шапка, карман.

KIRISH. Farg‘ona vodiysi Munchoqtepa sag‘analaridan ajoyib saqlangan ipakli va ipli matodan tikilgan ust-bosh qoldiqlarini namunalarini topilishi, nafaqat to‘qimachilik, balki O‘rta Osiyo xalqlari kiyimlari tarixida ham yangi sahifalar ochdi. Ushbu kiyim-kechaklarni o‘rganish, tadqiq etish qadimgi farg‘onaliklar kiyimi ancha murakkab qilib tikilganini ko‘rsatadi. Biz topilgan ma’lumotlar asosida Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyida tadqiqot olib bordik. Bu yerda asosiy e’tibor kiyim detallarini ko‘rsatuvchi chizmalar va fotolarga e’tibor qaratildi. So‘ngra ularni ta’mirlash jarayonidagi ma’lumotlarga e’tibor berildi. Oxirgi bosqichda to‘plangan materiallar ma’lum devoriy suratlar, miniatyura, terrakota haykalchalari va ayrim yozma manbalar ma’lumotlariga solishtirildi va kiyimlar namunalari tiklandi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR.

Farg‘ona vodiysi aholisining an’anaviy kiyim-kechaklari masalasi o‘zbek etnografiyasi, san’atshunosligi va madaniyat tarixi doirasida qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. XX asr boshlarida olib borilgan dastlabki etnografik izlanishlarda kiyim-kechaklar asosan turmush tarzi, ijtimoiy qatlam va hududiy farqlar asosida tavsiflangan. Xususan, A. Semenov, S. Tolstov, M. Andreev kabi tadqiqotchilar asarlarida Farg‘ona vodiysi liboslarining shakli, materiali va bezak xususiyatlari umumiy etnografik kontekstda yoritilgan.

Mustaqillik davrida o‘zbek milliy kiyimlariga bo‘lgan ilmiy qiziqish yanada kuchaydi. O‘zbekistonlik olimlar - K. Shonazarov, N. Qosimova, R. Abdullayeva, M. Qo‘zieva, S. Davlatova va boshqalar tadqiqotlarida kiyim-kechaklar badiiy-estetik hodisa sifatida tahlil qilinib, rang ramziyati, kashtachilik, naqsh va choklarning etnik ma’nosi ochib berilgan. Ayrim ilmiy ishlarda erkaklar va ayollar kiyimlari alohida tasniflanib, yosh, jins va ijtimoiy mavqega bog‘liq farqlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, muzey fondlari, arxiv hujjatlari va dala-etnografik materiallar asosida yaratilgan monografiya va dissertatsiyalarda Farg‘ona vodiysi kiyinish madaniyatining tarixiy rivojlanish bosqichlari tizimli yondashuv asosida yoritilgan. Biroq mavjud adabiyotlarning aksariyatida kiyim-kechaklarning hududiy tasnifi va etnik xususiyatlari kompleks tarzda, zamonaviy ilmiy metodlar asosida yetarlicha umumlashtirilmagan.

Mazkur maqolada aynan shu jihatlar chuqurroq tahlil qilinib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida Farg‘ona vodiysi kiyim-kechaklarining tasnifi va etnik xususiyatlariga oid nazariy xulosalar boyitilishi maqsad qilib olinadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bizning eskizlarimizda ayollar ko‘ylagi uzun, etagi to‘pig‘igacha tushgan. Etagining eng quyi qismida ikki yon tomonidan qirqib qo‘yilgan. Bellarini esa, kamar-belbog‘ bilan bog‘lab tasvirladik. Kamarlarning usti ipak, astari qattiqroq paxta matodan tikilgan. Ular yumshoq, to‘qasiz kamarlar turiga kirgan. Ustki xalat bizning tahlilimizcha, paxta matosidan tikilgan. Kiyim ipak matodan yasalgan gullar bilan bezatilgan. Ayollar ko‘ylagi yuqorida aytganimizdek, etagi to‘pig‘igacha tushgan. Ko‘ylagining yenglari ham uzun bo‘lib, barmoqlari uchigacha yopib turgan. Ust-bosh mavsumga qarab bir necha qavat kiyilganga o‘xshaydi. Bu boshqa bir qamish tobutni o‘rganish davomida oydinlashdi: bu marhum ustida uch qator kiyim bor edi. Eng ustki qavatda xalatni eslatuvchi kiyim, ostida esa yana ikki qavat ipakdan tikilgan kiyim bor edi[1].

Ayollarning bosh kiyimi qalpoqlar va do‘ppilar bezakli tikilgan bo‘lgan. Bezaklar munchoqlar bilan ishlangan. Munchoqlar asosan mahalliy mahsulotlardan yasalgan.

Bolalar kiyimi. Ular kalta, belidan sal pastga tushib turgan holda tasvirladik. Ko‘ylak etagidan, ya’ni beli atrofida ikki yon tomonidan qirqib qo‘yganlar. Yoqalari to‘g‘ri va belida maxsus tasma-belbog‘i bor. Ko‘krak qismini berkitish uchun ipdan alohida bog‘ichdan foydalanilgan, yenglari uzun. Tashqi choklar ensiz lenta bilan chizilgan. Ko‘ylakni bizning eskizimizda, sharovar tipidagi kiyim bilan

tasvirlangan.

Qiz bolalar kiyimi. Ayollar ko‘ylagidan unchalik farq qilmaydi. Ko‘ylakning ko‘krak qismi, yengining uchi va etagi maxsus to‘q ranglar bilan ajratilgan. Tahlil qiladigan bo‘lsak Munchoqtepadagi kiyimlar ham O‘rta Osiyodagi o‘sha ilk o‘rta asrlar an’anasi asosida tikilgan. Yengi, etagi, yelka qismlari choklari maxsus mato ipak bilan chok bostirilgan. Kiyimlarning modasi Buyuk Ipak yo‘lidagi xalqlarning liboslaridan ko‘p farq etmaydi. **O‘yma cho‘ntak munchoqlar va maxsus qimmat baho ipakli bezaklar, alohida shaklli tugmalar, bant va amuletlar-bu Munchoqtepa kiyimlariga xos belgilardir.**

Bosh kiyimi. Ba’zi bir kattalar va bolalar jasadlarining bosh qismida peshonasida, ehtimol unga bog‘langan, ipak lenta qoldiqlari qayd etildi. Uning uzunligi 40 sm. chamasi, eni 4-6 sm. Shunga o‘xshash ipak lenta ham bor. Kenko‘l mozoridagi qabrlarda ham aniqlangan. Shunday bosh kiyimi qoldig‘i milodiy ming yillikning birinchi yarmiga oid Farg‘ona mozorlarida ham topilgan[2]. Bunga o‘xshashlari O‘rta Osiyoning boshqa hududlarida ham etnograflar ham arxeologlar tomonidan aniqlangan. Misol uchun Buxoro viloyatida topilgan terrakotadan haykalcha va Samarqandda topilgan haykalchada ayollar kostyumi tasvirlangan. Bu topilmani tahlili Farg‘ona vodiysidagi kiyimlarga o‘xshashligi aniqlandi.

Qadim davrlardan bosh kiyimga qarab o‘zbeklarning etnik guruhlari farq qilingan. Erkaklar boshiga asosan turli xildagi do‘ppi kiygan, ayollar esa ko‘pgina rang-barang ro‘mol

yopingan. Asrlar davomida boshga o‘ralgan ro‘mollar Farg‘ona vodiysida “qarag‘ay” deb atalgan, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lib, ipak shoyi, paxta va jun matolardan bo‘lgan. Kundalik bosh kiyim sifatida, yoz oylarida doka ro‘mollar o‘ralgan. Farg‘ona vodiysida ro‘molning alohida bir turi rasm bo‘lgan, u chorsi shaklida bo‘lib, uchlari burchak-burchak qilib taxlanib, boshga o‘ralib, ustidan qora yoki qoramtir tusdagi durracha tashlangan.

Do‘ppining dastavval tagini va gardishini ayrim holda tikib kashtalaganlar va mayda qavalab qo‘shib tikkanlar. Odatda, do‘ppi nozik gulli, qadab tikiladi, ayrim ayollarning do‘ppisiga mayda munchoq, marjonlar, xorazmliklarda jiyak va popuk taqiladi.

Munchoqtepa materiallari ichida yana bir bosh kiyimining qoldiqlari uchraydi. Ular marhumning boshi ostida yoki yuz qismining yon atrofida katta ipak mato bo‘laklari ko‘rinishida qayd etildi. Etnografiya ma’lumotlariga tayanib, bizlar bu bosh kiyim qoldig‘ini peshonabandning bir turi bo‘lishi mumkin deb hisoblaymiz[3].

Etnograflarning ta’kidicha, peshonabandni yosh qizlar va kelinlar taqib yurishgan, u ham ro‘mol, ham peshonaband vazifasini bajargan. Boshqa xil bosh kiyim qoldiqlari saqlanmagan, ayrim hollarda jasadning bosh tomonida munchoqchalar ham qayd etildi. Ehtimol, ular bosh kiyimining bezagi bo‘lgandir. Boshqa sag‘anadan chiqqan yana bir topilma - mayda jez xaykalcha ham bosh kiyimi to‘g‘risida ma’lum tushuncha berishi mumkin.

Biz haykalchaning bosh qismini diqqat bilan o‘rganib, unda silindr shaklidagi usti yassi bo‘lgan bosh kiyimi tasvirlangan deb taxmin qildik. Xuddi shunga o‘xshaydigan bosh kiyim Qayrag‘och yodgorligida ham aniqlangan. U yerdagi haykalchaning boshida «uzun, qora yassi bosh kiyimi» bor[4].

Mavsumiy bosh kiyimlar qalin matodan tikilgan, duxoba matodan aylana bichimli qalpoqlar chetlariga suvsar, tulki yoki qunduz mo‘ynalari tikib chiqilgan. Shuningdek, Farg‘ona vodiysida kigizdan yoki mo‘ynadan tikilgan baland “tumoq”lar kiyilgan. Erkak kishilar kuloh, qalpoq, do‘ppilar ustidan yengil, yaxshi ishlov berilgan doka yoki yupqa jun matodan salla o‘rashgan. Erkaklar boshiga asosan turli xildagi do‘ppi kiygan, ayollar esa ko‘pgina rang-barang ro‘mol yopingan.

XULOSA.

Kiyim-kechaklar erkaklar, ayollar va bolalar liboslari, shuningdek, mavsumiy, marosimiy va kundalik kiyimlar ko‘rinishida tasniflanib, har bir guruhda o‘ziga xos mahalliy-uslubiy belgilar aniqlangan. Xususan, ayollar liboslarida ranglar va naqshlarning ramziy mazmuni, erkaklar kiyimida esa funksionallik va ixchamlik ustuvorligi kuzatildi. Bosh kiyimlar, tashqi kiyimlar hamda bezak buyumlari etnik identifikatsiyaning muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida Farg‘ona vodiysi kiyimlarida o‘zbek etnosiga xos an’anaviy unsurlar bilan bir qatorda qo‘shni etnik guruhlar (tojik, qirg‘iz va boshqalar) madaniy ta’sirining sintezi mavjudligi aniqlandi. Bu holat mintaqaning tarixiy savdo yo‘llari, migratsion jarayonlar va madaniy aloqalar markazi bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona vodiysi kiyim-kechaklari nafaqat amaliy ehtiyoj mahsuli, balki xalqning etnik o‘ziga xosligi, estetik qarashlari va tarixiy xotirasini mujassam etuvchi muhim madaniy merosdir. Ushbu tadqiqot natijalari milliy kiyim an’analarini saqlash, zamonaviy dizaynda an’anaviy unsurlardan foydalanish hamda madaniy merosni ilmiy asosda targ‘ib etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYITLAR:

1. Matboboev B. Qadimgi Farg‘onaning ilk o‘rta asrlar davri madaniyati. Samarqand. “Fan va texnologiya”. 2009.
2. Qo‘zieva M. Xonliklar davrida o‘zbek milliy liboslar tarixi. Toshkent “Zilol buloq”.2022.
3. S.Davlatova. O‘zbek kiyimlari atamalari izohli lug‘ati.Toshkent. “Fan”. 2017.
4. N.Sodiqova. O‘zbek milliy kiyimlari XIX-XX asrlar. Toshkent. “Sharq” 2003
5. Hasanboyeva G.K. Kostyum tarixi. Toshkent: “O‘zbekiston”. 2002.
6. Ismoilova H. An’anaviy o‘zbek kiyimlari.Toshkent “Fan”.1979.
7. Jabbarov I. O‘zbek xalq etnografiyasi. Toshkent, “Sharq”.1997.
8. Mirzaahmedov R. O‘zbek chitgarlik sirlari. “YUNESKO”.2001.